

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligida 2024-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT

I. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika ijro etuvchi hokimiyyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmoniga asosan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘linmalari (lavozimlari) faqatgina vazirlik va boshqa mustaqil idoralarda tashkil qilinishi belgilanganligi sababli Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) direktorining “Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat vazifa va funksiyalarini amalga oshiruvchi mas’ul xodimni belgilash to‘g‘risida” **2023-yil 8-iyundagi 59-AF-son**, “Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat vazifa va funksiyalarini amalga oshiruvchi mas’ul xodimni belgilash to‘g‘risida” **2023-yil 11-iyuldaggi 72-AF-son** buyruqlari bilan Agentlikda korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat funksiyalari Yuridik bo‘limga yuklatilgan bo‘lib Yuridik bo‘lim boshlig‘i U.T.Muxammadiyev tomonidan mazkur vazifalar amalga oshirib kelinmoqda.

Agentlik markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasiga muvofiq Yuridik bo‘lim o‘z faoliyatini **bevosita Agentlik direktoriga bo‘ysungan holda** amalga oshirib kelmoqda.

Agentlik direktori tomonidan 2024-yil 9-fevral kuni Agentlik xodimlari, tizimdagи mакtab direktorлari va mas’ul xodimlar ishtirokida yig‘ilish o‘tkazilib, unda 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida rejalashtirilgan vazifalar haqida tushuntirish va ko‘rsatmalar berilib, korrupsiya holatlarini oldini olishda xodimlarning eng avvalo korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirish zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, Agentlik direktorining 2024-yil 11-noyabrdagi 150-AF-son buyrug‘iga muvofiq Agentlik hamda tizimdagи tashkilotlarda “Korruptsiyaga qarshi kurashish oyligi” doirasida o‘z faoliyatları ochiqligini ta’minalash, korruptsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha fuqarolar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida “Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari o‘tkazilishi, manfaatlar to‘qnashushi va korrupsiya holatlari bo‘yicha xabar berish mumkin bo‘lgan aloqa kanallari Agentlikning veb-saytiga joylashtirilishi, xodimlar bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazilishi, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda rahbarlarning korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida intervylulari tashkil etilishi, ota-onalar o‘rtasida “Iste’molchilarning ta’lim xizmatlari sifatidan qanoatlanganligi” mavzusi bo‘yicha sotsiologik so‘rovnama o‘tkazilishi, “Aksilkorruptsiya haftaligi” o‘tkazilishi, “Korruptsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish” mavzusida xodimlarning “Korruptsiyaga qarshi kurashish virtual

akademiyasi” elektron platformasida malakasi oshirilishi, “O‘quvchi yoshlar halollik tarafdoi” 10 kunligi tadbirlari tashkil etish bo‘yicha ishlab chiqilgan reja-jadvalga asosan tizimdagi barcha maktablarda “O‘quvchi yoshlar halollik tarafdoi” 10 kunligi tadbirlari, tizimdagi maktablar va oliv ta’lim muassasalarida “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusida eng yaxshi rasmlar tanlovi tashkil etilishi ta’mindandi.

Bundan tashqari, joriy yilning 11-dekabr kuni tizimdagi Prezident va ijod maktablari, 18-19-dekabr kuni ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari rahbariyati ishtirokida yig‘ilish o‘tkazilib, tizimda qonuniylikni ta’minlash, xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta’minlash hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, shuningdek, 2025-yilda sohada amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan ishlar muhokama qilindi.

Yil sarhisobi bo‘yicha, 2024-yilda tizimdagi maktablarda 40 dan ortiq “Ochiq eshiklar kuni” tadbirlari o‘tkazilgan bo‘lib, bu haqida ta’lim muassasalari hamda Agentlikning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoritildi.

Korrupsiya haqida xabar berish uchun tashkil qilingan aloqa kanallari haqidagi ma’lumotlar Agentlikning veb-saytida (<https://piima.uz/stop-corruption>) aks ettirilgan hamda Agentlik binosining kirish joylarida aloqa kanallari haqidagi ma’lumotlar aks ettirilgan flayerlar joylashtirildi.

Agentlik jamoasi, barcha darajadagi rahbar va xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan amaldagi qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlar, odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya etishi bo‘yicha tizimdagi tashkilotlar va pedagoglarga shaxsiy namuna bo‘lishi yuzasidan rasmiy veb-saytda (piima.uz) Agentlik direktorining murojaatnomasi e’lon qilindi.

Shuningdek, Agentlik tizimidagi tashkilot va muassasalarning faoliyatiga asossiz aralashish, pedagoglarning sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishi, ularning majburiy mehnatga jalg qilinishi, ta’lim jarayoniga to‘sinqinlik qilinishi holatlariga yo‘l qo‘yilmasligi ustidan nazorat o‘rnatilgan bo‘lib zarur bo‘lgan choralar ko‘rib borilmoqda.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Joriy yilning fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid 16 ta, Agentlikning 2 ta ichki lokal hujjatlari Agentlik markaziy apparatining barcha xodimlariga imzo qo‘ydirilgan holda qayta tanishtirib chiqildi hamda ushbu hujjatlar ijro uchun tizim tashkilotlariga yuborildi.

Shuningdek, Agentlikda odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi Agentlik direktorining 2022-yil 1-noyabrdagi 120-AF-son buyrug‘i bilan tartibga solib kelinmoqda.

Agentlik direktorining “Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi faoliyatining ochiqligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 11-dekabrdagi 136-AF-son buyrug‘i bilan qonunchilik hujjatlari bilan

belgilangan ochiq ma'lumotlar sifatida e'lon qilinishi kerak bo'lgan ma'lumotlar yangidan tasdiqlangan hamda ularni taqdim qilish va joylashtirish uchun mas'ullar belgilangan.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 27-iyundagi 196-sonli buyrug'i bilan vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 12 ta ichki hujjatlar yangi tahrirda tasdiqlangan. Agentlik direktorining "Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2023-yil 3-iyuldaggi 69-AF-son buyrug'i bilan ushbu hujjatlar ijroga qaratilgan va bu bo'yicha mas'ul bo'linmalar belgilangan.

Shuningdek, Agentlik direktorining 2024-yil 2-maydaggi 45-AF-son buyrug'i bilan Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom hamda Xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi xodimlari tomonidan qabul qilingan sovg'alar bo'yicha reyestr tasdiqlangan, sovg'alar reyestrining yuritilish bo'yicha mas'ul bo'linmalar belgilangan.

III. Xavf-xatarlarni baholash

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti (ro'yxat raqami 3383, 2022-yil 31-avgust) ga muvofiq Agentlik va Agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (keyingi o'rnlarda – markaz) tomonidan vazifa va funksiyalar korrupsiyaga qarshi baholashdan o'tkazildi.

Baholash jarayonida Agentlikning 31 ta funksiyasidan 2 tasida korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi "o'rta", qolganlarida "past" sifatida qayd qilingan.

Agentlik va markazning funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni butunlay bartaraf qilish maqsadida funksiyalarni amalga oshirish davomida bajariladigan ishlarning barchasini avtomatlashtirish amalga oshirilmoqda.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

O'tgan hisobot davrida Agentlik markaziy apparatiga ishga qabul davomida 24 nafar xodim, lavozimi o'zgarganda 16 nafar xodim manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasini to'ldirgan bo'lib manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

Shuningdek, Agentlik markaziy apparatida mehnat faoliyatini amalgalashuvchi barcha xodimlar tomonidan 2024-yil 15-fevralgacha bo'lgan muddatda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizomga asosan manfaatlar to'qnashuvining yillik deklaratsiyasi to'ldirildi. Yillik deklaratsiya natijasiga ko'ra manfaatlar to'qnashuvi aniqlanmadidi.

Shuningdek, Agentlik direktorining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashushi to‘g‘risida” gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi haqida” 2024-yil 10-iyunda 71-AF-son buyrug‘i qabul qilinib, Agentlikda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish yuzasidan mas’ul tarkibiy bo‘linmalarga vazifalar belgilandi.

Agentlikda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv toifasidagi barcha xodimlarning Adliya vazirligi tomonidan Bosh prokuratura va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan birgalikda ishlab chiqilgan “Manfaatlar to‘qnashuviga oid” test savollari asosida test.adliya.uz saytida bilim va ko‘nikmalari onlayn test sinovidan o‘tkazilishi ta’mindan.

Bundan tashqari, Agentlik xodimlari manfaatlar to‘qnashushi bilan bog‘liq holatlар hamda bunday vaziyatlarda ko‘riladigan choralar bo‘yicha illyustrativ tarqatma materiallar bilan ta’mindan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Agentlik shartnomalariga kiritish

O‘tgan hisobot davrida Agentlik hamda uning huzuridagi markazda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunining 71-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-son qarorida belgilangan tartibda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalarning barchasiga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritib kelinmoqda.

Agentlik xodimlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga qo‘srimcha kelishuvlar asosida korrupsiyaga qarshi shartlar kiritildi.

Kontragentlarni tekshirish

Hisobot davrida elektron do‘kon va boshlang‘ich narxni pasaytirish uchun o‘tkaziladigan auksion shaklida o‘tkazilgan xaridlar bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunining 71-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-son qarorida belgilangan tartibda shartnomalardan tashqari barcha holatlarda kontragentlarni tekshirish amalga oshirib kelinmoqda.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Hisobot davrida 24 nafar xodim ishga qabul qilingan bo‘lib, ularning nomzodlari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 27-iyundagi 196-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan tartibda Agentlik direktorining “Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2023-yil 3-iyuldaggi 69-AF-son buyrug‘i bilan mas’ul etib belgilangan bo‘linmalar tomonidan tekshirilib ijobiy xulosalar berilgan.

V. Ta’lim va kommunikatsiya

Xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish hamda korrupsiyaning jamiyat rivojlanishi uchun salbiy oqibatlari bilan tanishtirish maqsadida 2024-yilning 8-9-10-yanvar kunlari Agentlik tizimidagi ijod maktablari direktorlari va xodimlari uchun o'tkazilgan onlayn vebinarda ular bilan suhbat tashkil qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2024-yil 29-fevral, 7-may kunlari xalqaro mutaxassislar jalb qilingan holda tashkil qilingan seminarlarda sohani tartibga solishda ishtirok etadigan Yuridik bo'lim, Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'limi hamda Davlat xaridlari va ta'lif muassasalari infratuzilmasini monitoring qilish bo'limi xodimlarining Zoom platformasi orqali ishtirok etishlari ta'minlandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan joriy yil 29-30-may kunlari tashkil qilingan seminarda Yuridik bo'lim bosh yuriskonsulti B.Murodov ishtirok etib, tashkilotchilar tomonidan tayyorlangan sertifikatni qo'lga kiritdi.

2024-yilning 6-iyun kuni Agentlik markaziy apparati xodimlari hamda uning tizimidagi maktablar direktorlari va mas'ul xodimlari uchun davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik masalasida davra suhbat tashkil etildi.

Bundan tashqari, Agentlik tizimidagi tashkilot va muassasalarda ishga qabul qilish, ularning faoliyatiga asossiz aralashish, pedagoglarning sha'ni va qadr-qimmati kamsitilishi, ularning majburiy mehnatga jalb qilinishi, ta'lif jarayoniga to'sqinlik qilinishi holatlariga yo'l qo'yilmasligi ustidan nazorat o'rnatilgan bo'lib zarur bo'lgan choralar ko'rib borilmoqda.

Xususan, Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi tomonidan 2024-yil 25-iyun kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish, budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, maktabgacha va maktab ta'lifi sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatish, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuning mazmun-mohiyati va uni hayotga tatbiq qilish masalalari" mavzusida o'tkazilgan o'quv seminarda Agentlik xodimlari ishtiroki ta'minlandi.

Shuningdek, 2024-yil 5-avgust kuni Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi mas'ullari ishtirokida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi kurash targ'ibotiga bag'ishlangan onlayn muloqot tashkil etildi.

2024-yil 22-avgust kuni Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "Davlat xaridlari va boshqa budjet moliyaviy xarajatlarni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish" mavzusida o'tkazilgan seminarda Agentlik markaziy apparati mas'ul xodimlari ishtiroki ta'minlandi.

Joriy yilning oktabr oyida Agentlik markaziy apparatida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan 43 nafar xodimning hamda Agentlik tizimidagi 210 ta Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar rahbarlarining O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining edu.proacademy.uz platformasida "Manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish" mavzusida 12 soatlik masofaviy o'quv kursida o'qitilishi, Agentlik xodimlarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan tashkil qilingan “Davlat xizmatiga kirish” nomli 24 soatlik o‘quv kurslarida o‘qitilishi ta’minlandi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlар va huquqbazarliklar to‘g‘risidagi xabarlar

Hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-xarakatlari, manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga oid boshqa qonunbazarliklar bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risida aloqa kanallari orqali xabarlar kelib tushmagan.

Hisobot davrida Agentlikka korrupsiya faktlariga doir murojaat kelib tushmagan.

VII. Monitoring va nazorat

Agentlik markaziy apparatida mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi barcha xodimlar, shuningdek, tizimdagi tashkilot va muassasalar xodimlari tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish holatlarini aniqlash maqsadida o‘rganish va monitoringlar amalga oshirib borilmoqda.

Xususan, Agentlikda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi ikki nafar xodimning tadbirkorlik subyektidagi ta’sischilik faoliyati tugatildi.

VIII. Aniqlangan qoidabazarliklar va ularga nisbatan qo‘llanilgan tasir choralar.

Agentlik va uning tizimidagi tashkilotlarda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlar tomonidan korrupsiya va u bilan bog‘liq qoidabazarlik holatlari aniqlanmadi.

IX. Xulosalar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son, “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmonlariga asosan o‘tkazilgan ma’muriy islohotlarda Agentlikning hududiy bo‘linmalari nazarda tutilmagan.

Shu sababli mazkur hisobotda Agentlik, tizimdagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma’lumotlar aks ettirildi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasি

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflar bildiriladi.

1. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti (ro‘yxat raqami 3383, 2022-yil 31-avgust) ning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning xaritasini qaytadan ko‘rib chiqib qonunchilik hujjatiga o‘zgartirish kiritish maqsadga muvofiq.

Chunki mazkur ilovada davlat organlarining barcha funksiyalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi haqida taassurot uyg'onib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmoniga asosan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmalari (lavozimlari) faqatgina vazirlik va boshqa mustaqil idoralarda tashkil qilinishi belgilanganligi, vazirliklar huzuridagi respublika darajasidagi tashkilotlarda ushbu vazifalar boshqa tarkibiy bo'linmalarga yuklatilganligi butun tizimda sohada amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlarning jamlanishida qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Shu sababli e-anticor.uz platformasidagi ma'lumotlarni faqat markaziy apparatda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha baholash, tizimda amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlarni kiritganlik uchun ustunlik berilishini yo'lga qo'yish, tizim tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma'lumotlarni ularning o'zları tomonidan platformaga kiritilishini yo'lga qo'yish taklif etiladi.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmalari mustaqil tarkibiy bo'linma sifatida tashkil qilingan holda va boshqa tarkibiy bo'linmaga yuklatilgan holda amalga oshiriladigan vazifalarni inobatga olgan hamda vazirlik va idoralarning huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasida amalga oshirilgan ishlarning baholanishida 2023-yildan boshlab qo'llanilib kelayotgan Adliya vazirligi tajribasidan kelib chiqqan holda mustaqil tarkibiy bo'linma va yuklatilgan bo'linmalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni alohida alohida baholash amaliyotini joriy qilish maqsadga muvofiq.

**Korrupsiyaga qarshi kurash
va huquqiy nazorat uchun
mas'ul, Yuridik bo'lim boshlig'i**

 **U.T.Muxammadiyev**

